



## THE ROLE OF PHILOSOPHICAL SCIENCES IN ENSURING SOCIAL WELL-BEING IN SOCIETY: THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL OPPORTUNITIES

**Normuhammad Shaydullaev**

associate professor, candidate of philosophical Sciences  
Namangan State Technical University  
Uzbekistan, Namangan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** social well-being, philosophy, justice, equality, freedom, social system, moral values, political system, sustainable development, social justice, utilitarianism, liberalism, Marxism, globalization.

**Received:** 09.05.25

**Accepted:** 11.05.25

**Published:** 13.05.25

**Abstract:** Social well-being is a process aimed at creating just and equal living conditions for all members of society, the efficient distribution of economic and social resources, maintaining ecological sustainability, and developing cultural values. Philosophical sciences play a crucial role in shaping social, moral, political, and legal systems in society. This article analyzes the significance of philosophical sciences in ensuring social well-being in society and explores the theoretical and practical possibilities of philosophical principles, ideas, and approaches in ensuring social well-being.

## JAMIYATDA IJTIMOIY FAROVONLIKNI TA'MINLASHDA FALSAFIY FANLARNING ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY IMKONIYATLAR

**Normuhammad Shaydullaev**

dotsent, falsafa fanlari nomzodi  
Namangan davlat texnika universiteti  
O'zbekiston, Namangan

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy farovonlik, falsafa, adolat, tenglik, erkinlik, ijtimoiy tizim, axloqiy qadriyatlar, siyosiy tizim, barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat, utilitarizm, liberalizm, marksizm, globalizatsiya, texnologik inqilob.

**Annotatsiya:** Ijtimoiy farovonlik, jamiyatning barcha a'zolari uchun adolatli va teng yashash sharoitlarini yaratish, iqtisodiy va ijtimoiy resurslarni samarali taqsimlash, ekologik barqarorlikni saqlash va madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan jarayondir. Falsafiy fanlar jamiyatda ijtimoiy, axloqiy, siyosiy va huquqiy tizimlarni shakllantirishda muhim rol o'yndaydi. Mazkur maqolada falsafiy fanlarning jamiyatda

ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdagi ahamiyati, falsafiy tamoyillar, g'oyalar va yondashuvlarning jamiyatda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdagi amaliy va nazariy imkoniyatlari tahlil etilgan.

## РОЛЬ ФИЛОСОФСКИХ НАУК В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ В ОБЩЕСТВЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ

**Нормухаммад Шайдуллаев**

доцент, кандидат философских наук

Наманганский государственный технический университет

Узбекистан, Наманган

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** социальное благополучие, философия, справедливость, равенство, свобода, социальная система, моральные ценности, политическая система, устойчивое развитие, социальная справедливость, утилитаризм, либерализм, марксизм, глобализация, технологическая революция.

**Аннотация:** Социальное благополучие представляет собой процесс создания справедливых и равных условий для жизни всех членов общества, эффективного распределения экономических и социальных ресурсов, сохранения экологической устойчивости и развития культурных ценностей. Философские науки играют важную роль в формировании социальных, моральных, политических и правовых систем в обществе. Данная статья анализирует значимость философских наук в обеспечении социального благополучия в обществе и анализируются теоретические и практические возможности философских принципов, идей и подходов в обеспечении социального благополучия в обществе.

**Kirish.** Ijtimoiy farovonlik, jamiyatning barcha a'zolari uchun adolatli va teng yashash sharoitlarini yaratish, iqtisodiy va ijtimoiy resurslarni samarali taqsimlash, ekologik barqarorlikni saqlash va madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan jarayondir. Bunday farovonlikni ta'minlash nafaqat resurslar va imkoniyatlarni teng taqsimlashni, balki har bir fuqaroning o'z hayotini boshqarishdagi erkinligini, madaniy va ijtimoiy huquqlarini hurmat qilishni ham o'z ichiga oladi. Buning uchun jamiyatni shakllantiruvchi asosiy tamoyillarni va qadriyatlarni shakllantiruvchi fanlar muhim ahamiyatga ega. Aynan shu tamoyillarni tushunish va amaliyotga tatbiq etish jarayonida falsafiy fanlar katta o'rinn tutadi.

Falsafiy fanlar, jamiyatdagi ijtimoiy, axloqiy, siyosiy va huquqiy tizimlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Falsafa, inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, axloqiy mas'uliyatni, erkinlik vaadolatni ta'minlash tamoyillarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, falsafiy qarashlar ijtimoiy tizimlarning barqarorligini ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini

himoya qilish, adolatni ta'minlashga qaratilgan asosiy g'oyalar va tamoyillarni ishlab chiqadi[1]. Bu, o'z navbatida, jamiyatning umumiy farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ilmiy asoslarni yaratadi.

Bugungi kunda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda falsafiy fanlar nazariy jihatdan ham, amaliyotda ham asosiy ko'rsatkichlarga ega. Falsafiy ta'lim, yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatga, barqaror rivojlanish va ijtimoiy adolatga o'rgatish orqali, jamiyatda o'zgarishlar va taraqqiyot uchun zaruratdir. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi.

Falsafiy fanlarning jamiyatda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdagi roli, faqat ilmiy nazariyalar bilan cheklanmaydi. Ularning ijtimoiy hayotda qo'llanilishi, real muammolarni hal qilishda, masalan, ijtimoiy adolat, tenglik, erkinlik, inson huquqlari, barqaror rivojlanish kabi masalalar bo'yicha amaliy yondashuvlar yaratishda o'z ifodasini topadi. Falsafiy yondashuvlar ijtimoiy tizimlarni izchil ravishda rivojlantirishga, ularning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada falsafiy fanlarning jamiyatda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdagi ahamiyati, nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari va bu jarayonda qanday vositalar, tamoyillar va yondashuvlar qo'llanilayotganligi o'r ganiladi. Bunga qo'shimcha ravishda, zamonaviy falsafiy g'oyalar va yondashuvlar ijtimoiy tizimlarni rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilinadi.

Ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda falsafiy fanlarning roli, nafaqat adolatni, balki madaniyat va ijtimoiy yaxlitlikni shakllantirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, falsafiy fanlar jamiyatdagi barqaror rivojlanishni, ijtimoiy adolatni, erkinlikni ta'minlashda asosiy ilmiy manba sifatida qaralishi lozim. Falsafa, o'z navbatida, insonning ijtimoiy hayotdagi mas'uliyatini va uning jamiyatdagi rolini aniqlashda eng muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

### **Asosiy qism.**

Ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda, falsafiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafaning jamiyatni shakllantirishdagi o'rni bo'yicha turli olimlar tomonidan qator izlanishlar olib borilgan. K. Marksning ijtimoiy adolatga oid nazariyalari, J.J. Russo va A. Smitning iqtisodiy erkinlik va adolat tushunchalari jamiyatda farovonlikka erishishda falsafiy tamoyillarni shakllantirgan[2]. Shu bilan birga, zamonaviy falsafada ijtimoiy farovonlikning ekologik va barqaror rivojlanish asosidagi tushunchalari, masalan, barqaror rivojlanish falsafasi jamiyatda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga qaratilgan g'oyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafa, jamiyatni shakllantirishda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy sohalardan biridir. U faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, insonlarning axloqiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlarini

ham shakllantiradi. Ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda falsafiy fanlarning roli muhim bo'lib, ular o'zining o'ziga xos ta'siri orqali jamiyatda adolat, tenglik, erkinlik va mustahkam ijtimoiy tizimlarni yaratishda asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi. Falsafa, inson huquqlari va adolatni tushunishda, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda, siyosiy tizimlar va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, falsafiy ta'lim orqali odamlar o'zlarining axloqiy qadriyatlarini va jamiyatdagi ijtimoiy rolini anglaydilar.

Jon Lok, Immanuel Kant va J.-J. Russo kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy shartnomalar nazariyalari jamiyatda adolatli tizimlarni yaratishda asosiy o'rin tutadi[3]. Ular, har bir fuqaro uchun teng imkoniyatlar yaratish va jamiyatda mustahkam huquqiy asoslarni o'rnatish orqali, ijtimoiy adolatni ta'minlashga yordam beradi. Bundan tashqari, falsafa axloqiy qadriyatlar, mas'uliyat va ijtimoiy huquqlar haqida tushunchalarni shakllantiradi. Falsafiy ta'limotlar orqali, insonlar jamiyatda tenglik va adolatni ta'minlashda zarur bo'lgan etik tamoyillarga ega bo'ladilar. Masalan, utilitarizm g'oyasi ijtimoiy farovonlikni eng katta foya keltiradigan tizimni yaratish orqali amalga oshirishni taklif qiladi, bu esa jamiyatda eng ko'p odamning manfaatini ko'zlashga yo'l qo'yadi. Bunday yondashuv, jamiyatda har bir individning farovonligini oshirishga imkon beradi.

Falsafiy ta'lim jamiyatdagi siyosiy tizimlarning asoslarini shakllantiradi va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda demokratik tamoyillarni rivojlantiradi. Liberalizm, marksizm, va postmodernizm kabi falsafiy oqimlar, jamiyatda ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun turli nazariyalar ishlab chiqishgan. Liberalizm, erkinlik va tenglikni jamiyatda barqarorlashtirishga qaratilgan bo'lsa, marksizm iqtisodiy adolatni va sinfiy tenglikni ta'minlashga intiladi. Bunday yondashuvlar, ijtimoiy tizimlarda adolat va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Falsafiy g'oyalar ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda asosiy nazariyalarni yaratishda, jamiyatning har bir sohasiga ta'sir ko'rsatadi. Utilitarizm, ijtimoiy farovonlikni jamiyatdagi eng ko'p odamning foydasiga qarab shakllantirishni taklif etadi. Bunday yondashuv, jamiyatda adolatni ta'minlash va har bir fuqaroning farovonligini oshirishga imkon beradi. Ijtimoiy adolat nazariyasida esa, eng ko'p yordamga muhtoj bo'lganlarga ko'proq resurslar taqdim etish taklif qilinadi. John Rawlsning "adolatning ikki tamoyili" g'oyasi, jamiyatda tenglikni va adolatni ta'minlash uchun zarur nazariy asoslar yaratadi[4]. Barqaror rivojlanish falsafasi ham ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda o'zining o'rniga ega. Falsafiy ta'limotlar, tabiatni asrash, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni birlashtirishga yordam beradi, bu esa ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda falsafiy fanlar, globalizatsiya va texnologik inqiloblar ta'siri ostida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globalizatsiya jarayoni insonlarni dunyo miqyosida bir-biriga yaqinlashtirib, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashni talab etmoqda. Falsafiy fanlar bu

jarayonni tushunishda va jamiyatda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Texnologik inqilob esa, yangi etik muammolarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, texnologiyalarning jamiyatdaadolatni ta'minlashdagi roli, falsafiy nazariyalar orqali chuqr tahlil qilinadi[5]. Jamiyatdagi o'zgarishlar va yangiliklar, falsafiy ta'lim va g'oyalar orqali zamonaviy ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda yordam beradi.

Zamonaviy falsafiy yondashuvlar, inson huquqlari, erkinlik va tenglikni ta'minlash, ijtimoiy tizimlarda barqarorlik yaratish vaadolatli jamiyatni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Falsafiy fanlarning jamiyatni shakllantirishdagi roli, ularning nazariy va amaliy imkoniyatlarini chuqr o'rganish orqali, ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning eng samarali yo'llarini topish mumkin.

Mazkur maqolada, ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda falsafiy fanlarning rolini o'rganish uchun tizimli va tahliliy yondashuvlar qo'llanilgan. Bunda, falsafiy metodlarning ijtimoiy tizimlarga tatbiq etilishi, tarixiy va zamonaviy falsafiy g'oyalarning amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, jamiyatning ijtimoiy, axloqiy va huquqiy tizimlarida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda falsafiy g'oyalarning qo'llanilishiga oid misollar ko'rsatilgan.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, falsafiy fanlarning jamiyatda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdagi roli katta ahamiyatga ega bo'lib, ular jamiyatdagi turli sohalarda, ayniqsa axloqiy, siyosiy va iqtisodiy tizimlarda ijtimoiy barqarorlikni shakllantirishda asosiy yo'nalishlarni belgilaydi. Falsafa faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, insoniyatning ijtimoiy hayotini, axloqiy qadriyatlarini va siyosiy qarashlarini shakllantiradi. Shu bois, falsafiy ta'limotlar jamiyatdaadolat, erkinlik, tenglik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning nazariy va amaliy asoslarini yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Falsafiy fanlarning jamiyatda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdagi roli, ularning o'zgarmas va zamonaviy g'oyalarini birlashtirib, har bir fuqaroning huquqlarini hurmat qilish,adolatli iqtisodiy tizimni yaratish, hamda axloqiy qadriyatlarni o'stirishga yordam beradi. Bunday yondashuv, jamiyatda haqiqiy ijtimoiy farovonlikni yaratishga xizmat qiladi. Falsafiy fanlar, nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham, jamiyatning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Falsafiy ta'lim orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga erishish mumkin.

Umuman olganda, falsafiy fanlarning ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdagi ahamiyatini yanada kuchaytirish uchun, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, yangi ilmiy yondashuvlarni yaratish va ilg'or fikrlashni rivojlanish zarur. Falsafiy fanlar, shu tarzda, jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini hisobga olib, bir-birini to'ldiradigan va

muvozanatli tizimni shakllantiradi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda ijtimoiyadolatni va farovonlikni ta’minlashda muhim omil bo‘ladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Davronovich, D. Z., Lutfullaevich, S. B., & Umirzoq o‘g‘li, T. A. (2024). Dunyoqarashni shakllanishida falsafaning o‘rni // Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali, 1(2), 34-37.
2. Фролов, О. В. (2007). *Социальная философия: теория и практика*. СПб: Питер. ISBN: 978-5771409073
3. Habermas, J. (1984). *The Theory of Communicative Action, Volume 1: Reason and the Rationalization of Society*. Beacon Press. ISBN: 978-0807010244
4. Гусев, В. П. (2010). *Философия социальной ответственности и социальной справедливости*. М.: Издательство РГУ. ISBN: 978-5902895462
5. Xolmatov, S. (2023). FALSAFA FANINING JAMIYATDAGI O‘RNI. Journal of technical research and development, 1(3), 169-173.